

## INNOVATSION DEPOZIT MAHSULOTLARI VA RAQAMLI BANK XIZMATLARINING BANK DEPOZITLARGA TA'SIRI VA RIVOJLANISHI TENDENSIYALARI

**Melikov Otabek Maxmadaminovich**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, "Moliya va bank ishi" kafedrasini mudiri,  
PhD*

[o.melikov@dpi.uz](mailto:o.melikov@dpi.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari tizimida innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, ularning depozit portfeliga ta'siri hamda kelajak tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mobil banking va innovatsion depozit mahsulotlarining joriy etilishi natijasida 2024-2025-yillarda depozitlar hajmi 20 foizdan ortiq o'sgan.

Raqamli xizmatlarning kengayishi mijozlar jalb qilishda yangi imkoniyatlar yaratib, bank sektorining raqamli transformatsiyasiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Ushbu maqola olib borilgan tadqiqotning innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining bank depozitlarga ta'siri va rivojlanishi tendensiyalari tahlili ilmiy dolzarbligini yaqqol aks ettiradi.

**Kalit so'zlar:** *innovatsion depozit, raqamli bank xizmatlari, mobil banking, bank depozitlari, moliyaviy texnologiyalar, raqamli transformatsiya.*

## ИННОВАЦИОННЫЕ ДЕПОЗИТНЫЕ ПРОДУКТЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ, ИХ ВЛИЯНИЕ НА БАНКОВСКИЕ ДЕПОЗИТЫ

**Меликов Отабек Махмадаминович**

*Заведующий кафедрой "Финансы и банковское дело" деновского института  
предпринимательства и педагогики, PhD*

[o.melikov@dpi.uz](mailto:o.melikov@dpi.uz)

**Аннотация:** В данной статье анализируются развитие инновационных депозитных продуктов и цифровых банковских услуг в системе коммерческих банков Узбекистана, их влияние на депозитный портфель, а также будущие тенденции. Согласно результатам исследования, внедрение мобильного банкинга и инновационных депозитных продуктов привело к росту объема депозитов более чем на 20 % в 2024-2025 годах.

Расширение цифровых услуг создает новые возможности для привлечения клиентов и вносит значительный вклад в цифровую трансформацию банковского сектора. Данная статья наглядно отражает научную актуальность анализа влияния инновационных депозитных продуктов и цифровых банковских услуг на банковские депозиты и тенденции их развития.

**Ключевые слова:** *инновационный депозит, цифровые банковские услуги, мобильный банкинг, банковские депозиты, финансовые технологии, цифровая трансформация.*

## **INNOVATIVE DEPOSIT PRODUCTS AND THE DEVELOPMENT TRENDS OF DIGITAL BANKING SERVICES: THEIR IMPACT ON BANK DEPOSITS**

**Melikov Otabek Makhmadaminovich**

*Head of the Department “Finance and banking” of the denov Institute of entrepreneurship and pedagogy, PhD*

*o.melikov@dtpi.uz*

**Abstract:** This article analyzes the development of innovative deposit products and digital banking services in Uzbekistan’s commercial banking system, their impact on the deposit portfolio, and future trends. According to the research results, the introduction of mobile banking and innovative deposit products led to an increase of over 20 % in deposit volumes during 2024-2025.

The expansion of digital services has created new opportunities for customer acquisition and has made a significant contribution to the digital transformation of the banking sector. This study clearly reflects the scientific relevance of analyzing the impact of innovative deposit products and digital banking services on bank deposits and their development trends.

**Keywords:** *innovative deposit, digital banking services, mobile banking, bank deposits, financial technologies, digital transformation.*

### **KIRISH**

Zamonaviy iqtisodiyotning dunyosida raqamli texnologiyalar shakli o‘zgarmoqda. Bank sektori, xususan depozit bozori ham bu transformatsiyaning markazida joylashgan. Ozbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistikasi ko‘rsatadiki, 2025-yil boshida mamlakatdagi tijorat banklarining umumiy depozit portfeli 308 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, yil oxiriga kelib bu ko‘rsatkich 371,5 trln so‘mga yetdi. Bu faqat 9 oylik davomda 20 % o‘shini ko‘rsatadi-bu raqam

O‘zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlar va innovatsion depozit mahsulotlarining qanchalik muhim rol o‘ynashi mumkin ekanligini yaqqol namoyon etmoqda.

2023-yilda O‘zbekistonda mobil banking foydalanuvchilarining soni 25 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu 2019-yilga nisbatan uch barobar ko‘p. Bugun esa mamlakatdagi bank mijozlarining 80 foizdan ortig‘i mobil banking ilovalaridan foydalanadi. Ushbu jadal o‘shish suratlari xalqaro standartlar bilan solishtirsa, jahon miqyosida ham shunga o‘xshash tendensiyalar kuzatilmoqda – 2025-yilda global mobil banking foydalanuvchilari soni 2,17 milliard kishiga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 35 % o‘shishni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan tasdiqlab qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari qatoriga kiritilgan. 2023-yil 24-may kuni Prezident PQ-162-son Qarori bilan “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari” tasdiqlab qabul qildi. 2025-yil 10-sentyabrda esa Prezident moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha muhim taqdimot bilan tanishtirildi, unda “FinTech” korxonalarini soni 2018-yilda 24 tadan 103 taga yetganligini, mamlakatga 260 million dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb etilganligini va “Open banking” tizimini butunlay joriy qilish ekanligini ta’kidladik.

Tadqiqotning ahamiyati shundaki, O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiya faqat texnologik masalasi emas, balki iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlaydigan muhim vosita sifatida qaralmoqda. Innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli xizmatlar mamlakatning eng masofaviy qishloq va shaharlarida ham bank xizmatlarini jalb qilish imkonini beradi. Bu esa moliyaviy sektorni ixcham qiladi va investitsiyalarni tejamlash konseptiyasiga asoslanadi.

Maqola O‘zbekiston, O‘rta Osiyo va global miqyosda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi mavzusini ilm-fandan asoslanib, aniq raqamlarni va ilmiy dalillarni keltirib tahlil qiladi. Bank rahbariyati, moliya va iqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislar, davlat organlari va investor va tadbirkorlarning qiziqish va diqqatiga sazovor bo‘lishi mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son Qarori “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida bank sektorida raqamli transformatsiyaning asosiy huquqiy kenotigini tayyorladi.

Renessans Xususiy Universitetining 2023-yilda tayyorlagan “Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish” o‘quv qo‘llanmasi bank depozit operatsiyalarining

klassik printsiplari va strategiyalarini yoritib beradi [3]. Qo‘llanmada tijorat banklarining passiv operatsiyalari depozitlar boshqarish usullari, foiz stavkalarini belgilash mexanizmlari va mijozlarni jalb qilish strategiyalari batafsil tahlil qilingan. Ammo ushbu qo‘llanmada innovatsion depozit mahsulotlari dinamik foizli depozitlar, mobil banking orqali ochilgan omonatlar to‘liq qamralmagan.

O‘zbekiston xususiy universitetining 2024-yilda nashr etilgan “Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorati” darsligida bank faoliyatini tartibga solishning qonunchilik, regulyator va nazorat masalalari yoritilgan [4]. Darslikda Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasidagi munosabatlar, bank lisenziyalashtirilishi va boshqaruvi, bank xavfsizligini ta‘minlash chorallari va raqamli bank xizmatlarining regulyatsiyasi ko‘tarilgan. 2024-yil nashriyatiga qaramay, darslikda innovatsion depozit mahsulotlarining har bir turi uchun alohida tartibga solish masalalari qisman yoritilgan.

M.Maxmudova tomonidan tayyorlangan “O‘zbekiston bank sektorida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi tendensiyalari” maqolasi 2020-2023-yillar davomida O‘zbekiston tijorat banklari tizimida raqamli xizmatlarning rivojlanish jarayonini batafsil tahlil qiladi [5]. Maqolada mobil banking foydalanuvchilarining sonining o‘shish dinamikasi, raqamli depozit mahsulotlarining assortimenti, bank xizmatlarining qulayligi va raqamli xizmatlarning savdosi xususiyatlari chuqur tekshirilgan. Maxmudova maqolasining asosiy xulosasi shundaki, raqamli bank xizmatlarining o‘shishi faqat texnologik masalasi emas, balki iqtisodiy zarurliligi bor ekanligini ko‘rsatadi.

S.E. Nematova tomonidan yozilgan “O‘zbekistonda bankni rivojlantirishda innovatsion xizmat turlarini joriy etish yo‘llari” maqolasi bank sektorida innovatsion xizmatlarni joriy etishning strategik yo‘llarini to‘liq tahlil qiladi. Nematova maqolasida “fintech” hamkorligining ahamiyati, mijozlarni tahlili, birinchi-mobil strategiya va “API-based banking” platformalari qaytarilgan [6]. Nematovanning asosiy fikri – O‘zbekistonda innovatsion bank xizmatlari joriy etishning eng samarali yo‘li fintech kompaniyalar bilan hamkorlik qilishdadir.

Tadqiqot guruhi tomonidan tayyorlangan “Innovatsion bank xizmatlarining ahamiyati va ularning bank daromadliligiga ta‘siri” maqolasi “Zenodo Scientific Repository”da e‘lon qilingan. Ushbu maqolada innovatsion bank xizmatlarining bank daromadliligi ko‘rsatkichlariga ekonometrik usuli bilan ta‘sirini tahlil qilindi [7]. Maqolada innovatsion xizmatlarning bank daromadiga qo‘shgan o‘zgartirish, komissiya daromadining o‘shishi, operatsion samaradorlikning yaxshilanishi va risk boshqarish samaradorligi ko‘tarilgan. Ushbu maqolaning ahamiyati shundaki, u innovatsion bank xizmatlarini faqat “texnologiya” sifatida emas, balki “pul sonini ko‘paytiruvchi vosita” sifatida ko‘rsatadi.

2025-yilda “Innovations in Science and technologies” jurnalida e‘lon qilingan “Innovatsion bank xizmatlarining ahamiyati va ularning bank daromadliligiga ta‘siri”

maqolasi oldingi zenodo platformasida maqolasining kengaytirilgan variantidir [8]. Ushbu 2025-yil maqolasida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiyot darajasidagi ta'siri, aholining raqamli savodxonligi, "AI" su'niy intellekt va "machine learning" mashinaviy o'rganishning bank xizmatlarida qo'llanilishi, va "cybersecurity" kibernetika xavfsizlik masalalari chuqur tekshirilgan. Maqolada raqamli transformatsiya faqat bank uchun emas, balki aholining butun moliyaviy ekotizimi uchun zarur bo'lishi ta'kidlangan.

"Raqamli banklar va an'anaviy banklar raqobati" maqolasi 2024-yildagi "worldly journals"da e'lon qilingan. Ushbu maqolada raqamli banklar Fintech startaplari va an'anaviy tijorat banklari o'rtasidagi raqobat turli jihatlari tahlil qilingan [9]. Maqolada raqamli banklarning foydalanuvchi tajriba ustunliklari, an'anaviy banklarning milliy tarmoq va sektorlardagi tarmoqlarining kuchli tomonlari, raqobatning iqtisodiy natijalari va ekotizim o'zgarishlari ko'tarilgan. Bu maqolaning asosiy xulosasi – raqobat jamiyat uchun ijobiy, chunki depozit xizmatlarining sifati va qulayligi sezilarli darajada yaxshilandi.

T.S. Turopov tomonidan tayyorlangan "Raqamli bank xizmatlari rivojlanishining bank va moliya tizimiga ta'siri" maqolasi "Raqamli Iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnalida e'lon qilingan [10]. Ushbu maqolada raqamli bank xizmatlari makroiqtisodiyot darajasida iqtisodiyotga ta'sirini batafsil tahlil qilindi. Maqolada moliyaviy barqarorlik va raqamli bank xizmatlari, iqtisodiy o'sish va bank kreditlashining bog'lanishi, sarmayavoy atraksiyoni va investitsiya migratsiyasi ko'tarilgan. Turopov maqolasining eng muhim hissasi raqamli bank xizmatlari moliyaviy sektor orqali iqtisodiyotning boshqa sohalariga qanday ta'sir o'tkazayotganini aniq ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2019-yilda chiqarilgan "Banklarda omonat operatsiyalarini rasmiylashtirish jarayonlari takomillashtirildi" yo'riqnomasi tijorat banklari depozit operatsiyalarini standartlashtirish uchun kasnoti hujjat bo'ldi [11]. Yo'riqnomada depozit shartnomalarining shakli va tarkibi, depozit sertifikatlarining raqamlashtirishi, xavfsizlik choralari ta'minlash va raqamli imzolarning qo'llanilishi belgilab berilgan. Bu yo'riqnomada depozit operatsiyalarning "raqamlashtiriladigan" ekinliklarini belgilab berilgan asosiy xujjat bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2025-yil 1-oktabr holatiga chiqarilgan "Tijorat banklarining kredit va depozitlar to'g'risida ma'lumot" rasmiy statistika taqdim etadi [12]. Ushbu statistika asosida 2025-yil oktabr holatiga jami depozitlar 371,5 trln so'mni tashkil etib, 2024-yil boshiga nisbatan 53,7 % o'sishni ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar omonatlarining o'sish sur'ati 2024-yilda 23,4 % ni tashkil etdi. Bu raqamlar raqamli depozit mahsulotlari va mobil-banking foydalanuvchilarining o'sishi bilan to'g'ri mutanosib bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2024-yil holatiga

tayyorlangan “Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida ma‘lumot” 2024-yilning ilk qismidagi bank sektori rivojlanishini ko‘rsatadi [13]. 2024-yil boshidan 1-oktabrgacha jami depozitlar 241,7 trln so‘mdan 286,9 trln so‘mga yetdi, bu 18,7% o‘shishni ko‘rsatadi. Jismoniy shaxslar omonatlarining o‘shish sur‘ati 23,4% ni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich umuma o‘rtacha o‘shishdan yuqori bo‘lib, aholining raqamli xizmatlar uchun qiziqish ortib ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2020-yilda tayyorlangan “Bank xizmatlari iste‘molchilariga eslatma” aholining bank xizmatlari to‘g‘risida ma‘lumotlanishi uchun tayyorlandi [14]. Ushbu xujjatda depozitlarning xavfsizligi va garantiyalash, shikoyat qilish tartibi, bank xavfsizligining alomatlari va raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanish ko‘tarilgan. Mobil bank va anlayn depozit xizmatlarining o‘shishi bilan, raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanish to‘g‘risida aholiga ma‘lumot berishning ahamiyati oshdi.

“Bank.uz” O‘zbekistondagi eng yirik depozit taqqoslash platformasi bo‘lib, hozirda 27 ta bank tomonidan taqdim etilayotgan depozit mahsulotlarini tarqatadi. Bank.uz-da so‘mdagi depozitlar foiz stavkalari 15-27 % oralig‘ida, valyuta depozitlari AQSH dollari va evro, muddatli depozitlar 3 oydan 3 yilgacha va real-vaqt taqqoslash avtomatik ko‘rsatiladi [15]. Bank.uz platformasining mavjudligi O‘zbekiston depozit bozoriga raqobat va shaffoflikni o‘tkazdi. Ammo, bu platforma faqat an’anaviy depozitlar uchun-innovatsion depozit mahsulotlari keng qamrovi yo‘q.


“Coinlaw.io” platformasi va “International Banking Federation” tomonidan tayyorlangan “Mobile Banking Statistics 2025: Global Trends, Market Growth and Digital Finance Innovation” xalqaro manbayida 2025-yilning mobil bank statistikasi taqdim etiladi [16]. Bunga ko‘ra global mobil banking foydalanuvchilari 2,17 milliard kishiga yetdi, mobil banking bozori 1,92 trillion dollar bo‘lib, 2020-yildan beri 35 % o‘shish kuzatildi. 2035-yil prognoziga ko‘ra mobil bank bozori 17,8 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu xalqaro statistika O‘zbekiston holatini global kontekstda tushunishga yordam beradi va O‘zbekiston bank sektorida raqamli transformatsiyaning darajasi ko‘rsatadi.

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekiston tijorat banklari tizimida innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, ularning depozit portfeliga ta’siri hamda kelajak tendensiyalarini tahlil qilishdir. Ushbu maqola miqdoriy sifatiy yondashuvlarning kombinatsiyasi tahliliy usullar ya’ni deskriptiv tahlil, taqqoslash tahlili, dinamik tahlil, strukturaviy tahlil, korrelyatsion tahlil, qo‘shimcha bir qancha tahlili asosida tayyorlandi. Bu yondashuv mavzuning turli jihatlari to‘liq yoritishga imkon beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston bank tizimida 2013-2025-yillar davomida depozitlar hajmi, o‘shish sur‘atlari, naqd pul ulushi va raqamli depozitlar ulushi dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda bank depozitlarining umumiy hajmi so‘nggi o‘n ikki yil ichida sezilarli darajada oshgan.



### 1-rasm. Innovatsion depozit mahsulotlarini bank depozitlar segmentiga kiritgan o‘zgarish dinamikasi<sup>1</sup>


Agar 2013-2015-yillar oralig‘ida jami depozitlar hajmi 31,8 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-2025-yillarga kelib bu ko‘rsatkich 238,7 trillion so‘mga yetgan. Demak, mazkur davr mobaynida depozitlar hajmi qariyb 7-8 barobarga ortgan. O‘shish dinamikasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori o‘shish sur‘ati 2016-2019-yillarda kuzatilgan bo‘lib, bu davrda bank depozitlari hajmi 119,5 foizga oshgan. Ushbu davr mamlakat bank tizimida mobil banking, onlayn hisob-kitob tizimlari va raqamli depozit mahsulotlari joriy etila boshlagan bosqichga to‘g‘ri keladi. Keyingi yillarda ham o‘shish sur‘atlari barqaror saqlanib qolgan - 2020-2022-yillarda 85,9 foiz, 2023-2025-yillarda esa 83,9 foiz atrofida bo‘lgan. Bu esa bank sektorining innovatsion rivojlanishi izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, naqd pul ulushi yildan-yilga kamayib borgan. Agar 2013-2015-yillarda bank tizimidagi naqd pul ulushi 26,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-2025-yillarda bu ko‘rsatkich 20,6 foizgacha kamaygan. Bu tendensiya aholi va xo‘jalik subyektlarining naqd pulsiz to‘lovlar hamda raqamli moliyaviy xizmatlarga o‘tishini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, bank tizimida naqd puldan foydalanish darajasi pasayib, elektron tranzaksiyalar ulushi oshmoqda. Aksincha, raqamli depozitlar ulushi tahlil davrida muntazam o‘shib borgan. 2013-2015-yillarda u 73,8 foizni tashkil etgan

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lsa, 2023-2025-yillarga kelib 79,4 foizga yetgan. Bu holat mamlakatda raqamli moliya infratuzilmasi rivojlanayotganini, banklar tomonidan innovatsion depozit mahsulotlari va mobil ilovalar keng tatbiq etilayotganini bildiradi. Natijada, aholi va biznes vakillari uchun depozitlarni shakllantirish, boshqarish hamda monitoring qilish imkoniyatlari soddalashgan.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston bank tizimi an'anaviydan raqamli depozit modeliga o'tish jarayonini aniq namoyon etadi. Naqd pul ulushining kamayishi va raqamli depozitlarning ko'payishi mamlakatda raqamli iqtisodiyotga o'tish strategiyasi, bank xizmatlarining innovatsion yo'nalishda rivojlanishi, shuningdek, mijozlar ishonchi va moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi bilan chambarchas bog'liqdir.



**2-rasm. Bank depozitlari tuzilmasining 2013-2025-yillar davomida o'zgarishi<sup>2</sup>**

Ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston bank tizimida 2013-2025-yillar oralig'ida depozitlarning tarkibiy tuzilmasi sezilarli o'zgarishlarga uchragan. Ushbu davr mobaynida naqd pul, o'tkaziladigan depozitlar va boshqa depozitlarning umumiy ulushi o'zaro muvozanatli tarzda qayta taqsimlangan. 2013-yilda naqd pul ulushi 23,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 19,5 foiz atrofida shakllangan. Bu holat bank tizimida raqamli moliya xizmatlarining kengayishi, elektron to'lov tizimlarining joriy etilishi, hamda aholi orasida bank xizmatlaridan foydalanish madaniyatining oshishi natijasida yuzaga kelgan. Natijada, naqd puldan foydalanish kamayib, naqd pulsiz to'lovlar ustuvorlik kasb etgan.


Mazkur turdagi depozitlar ulushi 2013-yilda 28,35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda u 18,64 foizgacha pasaygan. Biroq, keyingi yillarda, xususan 2022-2025-yillarda u 20 foiz atrofida barqarorlashgan. Bu o'zgarishlar iqtisodiyotda qisqa muddatli depozitlarning o'rnini uzoq muddatli va investitsion depozit mahsulotlari egallay boshlaganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu segmentning nisbatan past ulushi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ham mijozlarning bankdagi mablag'larni uzoqroq muddatli saqlashga bo'lgan moyilligi ortganini bildiradi. Eng katta o'sish boshqa depozitlar (ya'ni muddatli, jamg'arma va investitsion depozitlar) segmentida kuzatilgan. 2013-yilda ular 46,16 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 60,11 foizga yetgan. Bu esa bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini oshiruvchi omil bo'lib, aholining jamg'arma salohiyati ortgani va banklarga ishonch mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, 2013-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimida depozitlar tarkibi sifat jihatidan yangilangan. Naqd pul ulushi pasayib, uzoq muddatli depozitlarning ulushi ortgan. Bu holat bank tizimining raqamli transformatsiyasi, innovatsion moliyaviy mahsulotlar paydo bo'lishi va aholi moliyaviy savodxonligining oshishi bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqa depozitlar ulushining ortishi esa mamlakat iqtisodiyotida kapitalni bank tizimi orqali to'plash va qayta investitsiya qilish mexanizmlari takomillashayotganini bildiradi. Natijada, bank sektorining likvidligi oshgan, iqtisodiyotdagi investitsion faollik kuchaygan va moliyaviy barqarorlik mustahkamlangan.


O'zbekiston bank tizimida 2014-2025-yillar davomida umumiy depozitlar, naqd pul depozitlari hamda muddatli depozitlar o'sish sur'atlarining dinamikasini aks ettiradi. Grafik ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davr mobaynida depozitlarning o'sishi notekis, ammo umumiy tendensiya barqaror o'sish yo'nalishida kechgan. Umumiy depozitlar o'sish sur'ati 2014-yilda 17-18 foiz atrofida bo'lib, 2017-yilda 40 foizgacha oshgan. Bu davr mamlakatda bank sektorining modernizatsiyasi va raqamli moliya xizmatlarining joriy etilishi bilan izohlanadi. 2018-2020-yillarda o'sish biroz sekinlashgan (taxminan 14-20 foiz), ammo 2021-2025-yillarda yana tiklanib, 30 foiz darajasiga chiqqan. Bu esa depozit portfeli hajmining kengayishi va aholining bank tizimiga ishonchi ortganini bildiradi. Naqd puldagi depozitlarning o'sish sur'ati umumiy ko'rsatkichlarga nisbatan pastroq bo'lgan. 2014-2017-yillarda 13-28 foiz oralig'ida bo'lib, keyingi yillarda, xususan 2018-2020-yillarda, naqd pulsiz to'lov tizimlari rivojlanishi tufayli 10-15 foizgacha pasaygan. 2023-2025-yillarga kelib bu ko'rsatkich qayta tiklanib, 25-28 foizgacha oshgan. Bu o'zgarishlar naqd pul muomalasining qisqarishi bilan birga, raqamli depozit xizmatlariga talabning ortganini ifodalaydi.

Eng faol o'sish muddatli depozitlar segmentida kuzatilgan. 2014-yilda 20 foizni tashkil etgan o'sish sur'ati 2017-yilda 50 foizdan oshgan. Keyinchalik, 2018-2020-yillarda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab muddatli depozitlarning o'sishi yana faollashgan va 2025-yilga kelib 40 foizdan ortiq darajaga yetgan. Bu esa aholining uzoq muddatli jamg'arma madaniyati shakllanayotganini, shuningdek, banklar tomonidan taklif etilayotgan foizli depozit mahsulotlarining jozibadorligi oshganini ko'rsatadi.



**3-rasm. 2014-2025-yillarda depozitning yillik o'sish sur'atlari taqqoslama tahlili<sup>3</sup>**

Umuman olganda, 2014-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimida depozitlarning yillik o'sish sur'atlari barqaror ijobiy yo'nalishda kechgan. Naqd pul depozitlari nisbatan pastroq sur'atlarda o'sgan bo'lsa, muddatli va raqamli depozitlar segmenti iqtisodiyotdagi asosiy o'sish drayveriga aylangan. Bu holat mamlakatda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, bank tizimining transformatsiyasi, va moliyaviy barqarorlikning mustahkamlanishi jarayonlarini yaqqol tasdiqlaydi.



**4-rasm. 2018-2025-yillarda raqamli banking rivojlanish ko'rsatkichlari<sup>4</sup>**

2018-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimida raqamli banking xizmatlarining rivojlanish dinamikasi aks ettirilgan. Grafikda mobil banking, internet banking, masofaviy xizmatlar, raqamli to'lovlar, raqamli depozitlar va naqd pulsiz operatsiyalar ko'rsatkichlari uch davr 2018-2019, 2021-2022 va 2024-2025-yillar kesimida taqqoslangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2018-yillarga qadar raqamli banking infratuzilmasi endigina shakllanish bosqichida bo'lib, mobil banking va internet banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni juda kam 5-10 birlik atrofida)

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.


<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lgan. Biroq 2021-2022-yillarga kelib, ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 15-20 birlik darajasiga yetgan. 2024-2025-yillarda esa mobil bankingda 25 birlik, internet bankingda 22 birlik ko'rsatkichga erishilgan.

Masofaviy bank xizmatlari hajmi 2018-2019-yillarda minimal bo'lgan bo'lsa-da, 2025-yilga borib 19 birlikka yetgan. Bu esa bank mijozlarining ko'p qismi endilikda filiallarga bormasdan, raqamli platformalar orqali xizmatlardan foydalanayotganini bildiradi. Raqamli to'lovlar sohasida eng keskin o'sish qayd etilgan. 2018-2019-yillarda bu ko'rsatkich 12 birlik atrofida bo'lgan bo'lsa, 2021-2022-yillarda 30 birlik, 2024-2025-yillarda esa 70 birlikka yetgan. Bu o'sish QR-to'lovlar, mobil ilovalar va fintex xizmatlari rivojlanishi bilan izohlanadi.

Raqamli depozitlarning rivojlanish sur'ati ham yuqori bo'lib, 2018-2019-yillarda 15 birlik, 2021-2022-yillarda 45 birlik, 2024-2025-yillarda esa 78 birlik darajasiga chiqqan. Bu esa bank sektorida innovatsion depozit mahsulotlari (masalan, mobil ilovalar orqali avtomatik jamg'arma tizimlari) keng joriy etilganini ko'rsatadi. Naqd pulsiz operatsiyalar hajmi tahlil davrida doimiy o'sib borgan. 2018-2019-yillarda 18 birlik, 2021-2022-yillarda 52 birlik, 2024-2025-yillarda esa 71 birlik darajasiga yetgan. Bu natija "raqamli to'lov infratuzilmasining rivojlanishi" hamda aholining moliyaviy savodxonligi oshganini ifodalaydi.

2018-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida raqamli banking xizmatlarining barcha yo'nalishlari keskin o'sish bosqichini boshdan kechirgan. Ayniqsa, raqamli to'lovlar, raqamli depozitlar va naqd pulsiz operatsiyalar sohasida o'sish yuqori bo'lib, bu mamlakatda fintech innovatsiyalarining keng joriy etilayotganini, bank tizimining raqamli transformatsiyasi esa iqtisodiyotda naqd pulsiz muhitni shakllantirishga xizmat qilayotganini tasdiqlaydi.



**5-rasm. Banklar depozit foiz stavkalari taqqoslama grafigi<sup>5</sup>**


O'zbekiston tijorat banklari tomonidan 2025-yil holatiga e'lon qilingan maksimal depozit foiz stavkalari o'zaro farq qiladi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, banklar o'rtasida raqobat asosan muddatli depozitlar bozorida shakllangan bo'lib, har

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bir bank mijozlarni jalb etish uchun turli foiz siyosatini qo‘llagan. Tahlilga ko‘ra, 2025-yilda eng yuqori depozit stavkasini TBC Bank taklif qilgan bo‘lib, u 24 % atrofida shakllangan. Bu ko‘rsatkich ANORBANK 23 % va Aloqabank 22 % tomonidan taklif etilgan raqobatbardosh foizlardan ham yuqori. Ushbu banklarning yuqori stavkalar e‘lon qilishi, asosan, yangi mijozlarni jalb etish, depozit bazasini kengaytirish va likvidlikni oshirish maqsadida olib borilayotgan faol marketing siyosati bilan izohlanadi.

Trustbank 21 % va Kapitalbank 20 % o‘rta darajadagi stavkalarni taklif qilgan bo‘lib, bu banklar an‘anaviy mijozlar segmentiga yo‘naltirilgan barqaror strategiyani tanlagan. Asaka Bank, Ziraatbank va NBU esa nisbatan pastroq – 18-19 % atrofidagi foiz stavkalari bilan ajralib turadi. Bu banklar, odatda, katta hajmli korporativ mijozlar va davlat dasturlari ishtirokchilari bilan ishlashga ixtisoslashganligi sababli, pastroq foiz stavkalari bilan uzoq muddatli ishonchli depozitlar bazasini saqlab qolishni maqsad qilgan.

Umuman olganda, 2025-yil holatida O‘zbekiston tijorat banklari o‘rtasidagi depozit stavkalari 18 % dan 24 % gacha o‘zgarib, o‘rtacha 21 % darajada shakllangan. Bu esa bozorning raqobatbardoshligi kuchayganini va banklarning mijozlarni saqlab qolish hamda yangi jamg‘armalarni jalb etish borasida faol harakat qilayotganini ko‘rsatadi. Foiz stavkalarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi, bir tomondan, inflyatsiya bosimlarini qoplash, ikkinchi tomondan esa aholi omonatlarini bank tizimiga yo‘naltirish uchun rag‘batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilmoqda.



**6-rasm. 2013-2025-yillarda Depozitlar va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabat<sup>6</sup>**

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Ma'lumotlari asosida 2013-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston iqtisodiyotida bank depozitlari hajmi (trln so'mda), depozitlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati (Deposit/GDP, %) hamda inflyatsiya darajasi (%) o'rtasidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Grafikdan ko'rinadiki, bu davr mobaynida bank tizimining depozit bazasi izchil o'sib borayotgan bir paytda, inflyatsiya darajasi nisbatan barqarorlashgan. 2013-2015-yillarda depozitlar hajmi 25-40 trln so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, 2018-yildan boshlab u sezilarli o'sishni namoyon etgan va 2025-yilga kelib 320 trln so'mdan ortgan. Bu holat mamlakatda bank tizimiga ishonchning oshgani, raqamli va innovatsion bank xizmatlarining kengaygani, hamda aholining jamg'arma faoliyati kuchayganini anglatadi.

Depozitlarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (Deposit/GDP) 2013-yildagi 105 % dan 2025-yilda 300% gacha ko'tarilgan. Bu o'sish iqtisodiyotdagi moliyaviy chuqurlashuv, ya'ni iqtisodiyotning tobora ko'proq qismi bank tizimi orqali aylanayotganini bildiradi. Shuningdek, bu ko'rsatkich moliyaviy resurslarning banklar orqali qayta taqsimlanish samaradorligi ortayotganini ifodalaydi. Inflyatsiya ko'rsatkichi esa tahlil davrida teskari tendensiyani namoyon etgan. 2013-2014-yillarda 8-9 % bo'lgan inflyatsiya 2017-2019-yillarda biroz oshgan bo'lsa-da (12-13,5 %), 2021-yildan boshlab pasayish boshlangan. 2024-2025-yillarga kelib inflyatsiya 4,5-5 % oralig'ida barqarorlashgan. Bu natija pul-kredit siyosati samaradorligi, inflyatsion targetlash tizimi joriy etilishi, va bank sektorining barqarorlashuvi bilan bog'liq.

Ushbu rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, 2013-2025-yillar mobaynida O'zbekiston iqtisodiyotida depozitlar hajmi va Depozit/GDP ko'rsatkichlari keskin oshgan, inflyatsiya esa barqarorlashgan. Bu holat mamlakatda bank-moliya tizimining mustahkamlanishi, aholi jamg'armalarining bank tizimiga yo'naltirilishi, hamda makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, Depozit/YaIM o'sish sur'ati inflyatsiya darajasi pasayishi bilan tuzilmaviy teskari korrelyatsiyaga ega bo'lib, bu bank depozitlari iqtisodiyotning likvidlik manbai sifatida inflyatsion bosimni kamaytirish omili sifatida faol ishlayotganini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2013-2025-yillar oralig'ida O'zbekiston bank tizimida depozit bozori jadal rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. Mazkur davrda bank depozitlarining hajmi qariyb 8 barobarga oshib, 2025-yilda 371,5 trillion so'mga yetdi. Bu o'sish bir nechta muhim omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning eng asosiylari quyidagilardir:

- raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida mobil banking, internet banking va masofaviy xizmatlar joriy etildi;
- innovatsion depozit mahsulotlari (onlayn ochiladigan omonatlar, dinamik foizli depozitlar, raqamli jamg'arma tizimlari) kengayib bordi;
- fintech ekotizimining rivojlanishi orqali mijozlarga qulay, tezkor va shaffof bank xizmatlari taqdim etila boshlandi;

- moliyaviy savodxonlik va ishonch darajasi oshib, aholi va tadbirkorlar bank tizimiga faolroq jalb qilina boshladi.

Raqamli bankingning kengayishi natijasida naqd pul ulushi 26,2 foizdan 20,6 foizgacha kamaygan, bu esa iqtisodiyotda naqd pulsiz muhit shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, raqamli depozitlarning ulushi 73,8 foizdan 79,4 foizgacha oshgan, bu esa banklar tomonidan taklif qilinayotgan raqamli xizmatlarning samaradorligini isbotlaydi.

## XULOSA

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, inflyatsiya darajasining pasayishi va Depozit/YaIM ko'rsatkichining oshishi o'rtasida teskari korrelyatsiya mavjud. Ya'ni, bank tizimidagi depozitlar hajmi ortgani sayin, iqtisodiy barqarorlik va inflyatsiyani boshqarish samaradorligi ham kuchaygan. 2025-yilga kelib Deposit/YAIM 300 foizga yetib, banklar iqtisodiyotdagi asosiy moliyaviy vositachilarga aylangan. Yana bir muhim jihat shundaki, depozit foiz stavkalari 18-24 % oralig'ida shakllanib, o'rtacha 21 % darajasida saqlangan. Bu holat bir tomondan, inflyatsiya bosimini qoplashga, ikkinchi tomondan esa aholini jamg'armalarga jalb etishga xizmat qilgan. Umuman olganda, innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank tizimining likvidligini oshirdi, mijozlar segmentini kengaytirdi va O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy inklyuzivlikni chuqurlashtirdi.

Quyidagi takliflar ishlab chiqildi va dolzarb deb hisoblanadi:

- innovatsion depozit mahsulotlari assortimentini kengaytirish. Tijorat banklariga raqamli omonat turlari – dinamik foizli depozitlar, avtomatik jamg'arma tizimlari, ekologik yoki yoshlar omonatlari kabi yangi mahsulotlarni joriy etish tavsiya etiladi;

- "Open Banking" platformalarini to'liq integratsiya qilish. FinTech kompaniyalari bilan hamkorlikda ochiq ma'lumotlar almashuvi asosidagi tizimlarni rivojlantirish bank xizmatlari shaffofligi va mijozlarga moslashtirilgan yechimlar yaratishni ta'minlaydi;

- raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirish. Aholi va tadbirkorlik subyektlariga raqamli banking xavfsizligi, depozit mahsulotlari turlari va ularning afzalliklari haqida doimiy o'quv dasturlarini tashkil etish zarur;

- bank depozitlariga raqamli rag'bat mexanizmlarini joriy etish. Mobil banking foydalanuvchilariga cashback, bonus ballar yoki foizli sodiqlik tizimlarini yo'lga qo'yish mijozlarni uzoq muddatli jamg'armalarga undaydi;

- inflyatsiyani pasaytiruvchi depozit siyosatini davom ettirish. Depozitlarni ko'paytirish orqali ichki moliyaviy resurslar bazasini kengaytirish va bu orqali kredit resurslarini arzonlashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi;

- milliy FinTech strategiyasini ishlab chiqish. Raqamli bank xizmatlari, innovatsion mahsulotlar va raqamli to'lov infratuzilmasi rivojlanishini yagona strategik hujjat orqali muvofiqlashtirish zarur.

Bu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston bank tizimining innovatsion rivojlanishini yanada tezlashtiradi, iqtisodiyotda barqaror moliyaviy muhitni shakllantiradi hamda raqamli iqtisodiyotning muhim poydevorini mustahkamlaydi.

O'zbekiston tijorat banklari tizimida innovatsion depozit mahsulotlari va raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi bank faoliyatining yangi bosqichini boshlab berdi. Ularning natijasida nafaqat depozitlar hajmi keskin oshdi, balki bank xizmatlari sifati, mijozlar ishonchi va moliyaviy inklyuzivlik darajasi ham sezilarli darajada yaxshilandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli banking vositalari, mobil va internet ilovalar, shuningdek, fintech hamkorliklari iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son liqarori. "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida". [https://lex.uz/uz/docs/-6472548\](https://lex.uz/uz/docs/-6472548)

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. 2025-yil 10-sentyabr. "Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish choralari". IIBB (Ijtimoiy Masalalar Bo'yicha Axborot Markazi). <https://iibb.uz/oz/news/measure-on-fintech-devel>

3. Renessans Xususiy Universitetining O'quv qo'llanmasi. 2023. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish". Toshkent. <https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-08-07-41>

4. O'zbekiston Xususiy Universitetining Darslik. "Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorati". 2024yil. [https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/08/23/Tijorat\\_banklari\\_faoliyatini\\_tartibga](https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/08/23/Tijorat_banklari_faoliyatini_tartibga)

5. Maxmudova, M. (2023). "O'zbekiston bank sektorida raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi tendensiyalari". Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti jurnali. <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/>

6. Nematova, S.E. (2023). "O'zbekistonda bankni rivojlantirishda innovatsion xizmat turlarini joriy etish yo'llari". CyberLeninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-bankni-rivojlantirishda>

7. Tadqiqot guruhi. (2024). "Innovatsion bank xizmatlarining ahamiyati va ularning bank daromadligiga ta'siri". Zenodo Scientific Repository. <https://zenodo.org/records/12200166>

8. Maqola. (2025). “Innovatsion bank xizmatlarining ahamiyati va ularning bank daromadliligiga ta’siri”. Innovations in Science and Technologies jurnali. <https://innoist.uz/index.php/ist/article/download/1316/1248/2890>
9. Maqola (2024). “Raqamli banklar va an’anaviy banklar raqobati”. Worldly Journals. <https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article>
10. Turogov, T.S. (2025). “Raqamli bank xizmatlari rivojlanishining bank va moliya tizimiga ta’siri”. “Raqamli Iqtisodiyot” Ilmiy-elektron jurnali. [https://api.infocom.uz/api/v1/magazine/download-article?article\\_id=889](https://api.infocom.uz/api/v1/magazine/download-article?article_id=889)
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2019). “Banklarda omonat operatsiyalarini rasmiylashtirish jarayonlari takomillashtirildi”. Yo‘riqnoma. <https://cbu.uz/uz/documents/3332/37556/>
12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). “Tijorat banklarining kredit va depozitlar to‘g‘risida 2025-yil 1-oktabr holatiga ma’lumot”. Statistika. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). “Tijorat banklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida 2024-yil holatiga ma’lumot”. Statistika. <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/>
14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). “Bank xizmatlari iste’molchilariga eslatma”. <https://cbu.uz/uz/consumer-protection/reminder>
15. Bank.uz. (2025). “O‘zbekiston banklarida so‘m omonatlari, valyuta omonatlari va eng yuqori foizli omonatlar”. Taqqoslash portali. <https://bank.uz/uz/deposits>
16. Coinlaw.io va International Banking Federation. (2025). “Mobile Banking Statistics 2025: Global Trends, Market Growth and Digital Finance Innovation”. <https://coinlaw.io/mobile-banking-statistics/>